UO‘K: 821.512.133:801.631.5

SHE’R-METAFORA

D.A. Muhammadiyev

Maqolada she’riyatda metaforaning o‘rni va roli, shoirning metafora qo‘llashdagi usullari tahlil qilingan. She’rda metaforaning turli shakl va holatlarda kelishi ochib berilgan. Xususan, she’riyatda doimiy ishlatiladigan metaforalar shartli ravishda “so‘z-metafora”, “birikma-metafora” nomlari bilan tahlil qilinib, shu tahlillarning uzviy davomi sifatida “she’r-metafora” holati ko‘rsatilgan. Ya’ni, bir she’rning o‘zi yaxlit bitta metafora bo‘la olishi mumkinligi ochib berilgan. Nazariy fikrlarni asoslash uchun Eshqobil Shukur she’rlaridan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *poeziya, metafora, she’r-metafora, obraz, talqin, metaforik obyekt, megametafora.*

В статье проводится анализ роли и значения метафоры в поэзии, приёмам использования метафоры поэтом. Раскрыто возникновение разных форм и случаев метафоры в стихотворении. В частности, проанализированы метафоры, часто встречающихся в поэзии: «слово-метафора», «сочетание-метафора» и понятие «стихотворение-метафора» как орагническое продолжение данных анализов. То есть раскрыт тот факт, что стихотворение само по себе может выступать в роли метафоры. Для подтверждения теоретических идей приводятся примеры из поэзии Эшкобила Шукура.

Ключевые слова: *поэзия, метафора, стихотворение-метафора, образ, интерпретация, метафорический объект, мегаметафора.*

Kirish

Insoniyat azaldan voqea, hodisa yoki holatlarni tasvirlashda o‘xshatish hamda ko‘chimlardan foydalanib keladi. She’riyatda ham poetik obraz va uning tasviri badiiy-estetik hodisa sifatida muhim o‘rin tutadi. Fikr ifodasida eng ko‘p qo‘llanadigan vosita esa metaforadir. Kishi ba’zan bilib-bilmay, sezib-sezmay turli ko‘chimlarni ishlataveradi. Aslida esa buni “bilib-bilmay” deb emas, insoniyat tafakkurining qondan-qonga, nasldan-naslga va avloddan avlodga o‘tib kelishi va tarixiy xotira bilan izohlash mumkin. Buni eramizning to‘rtinchi asrida yashagan yunon faylasufi Aristotel ham alohida ta’kidlaganini hisobga olsak, necha asrlar o‘tibdiki, mazkur qonuniyat o‘z kuchini saqlab kelayotganiga ishonch hosil qilamiz. Xususan, Aristotel: “...odamlar qadimdanoq tabiatan o‘xshatishga qobiliyatlidirlarki, ular buni oz-ozdan taraqqiy ettira borib, badiha she’rlar (improvizatsiya)dan haqiqiy poeziyani yuzaga keltirganlar”, – deydi [1. B. 12]. Xalq orasida qofiyaga solib gapirish, fikrini maqollar qo‘shib ifodalash, ko‘z o‘ngimizda turadigan oddiy o‘xshatishlardan foydalanish ko‘p hollarda she’rlarga ko‘chib o‘tadi. Timsol va ramzlar, o‘xshatishlar ana shu tarzda qaytadan adabiyot maydonida bo‘y ko‘rsatadi.

Metafora – badiiyatning o‘ziga xos poetik usuli bo‘lib, serqatlam va ko‘pma’noliligi, an’anaviyligi va bir vaqtning o‘zida individualligi bilan boshqa adabiy hodisalardan ajralib turadi. She’riyatda majoz va timsolni ifodalashda metafora beradigan poetik imkoniyat nihoyatda katta. Shu bois she’riyatni metaforik tasvir va taqqoslashlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tasvir va taqqoslashlarsiz she’r bayondan iborat bo‘lib qoladi. Ammo o‘sha bayonning ichida ham metafora ishlatish holatlari bo‘ladi.

Material va metodlar

She'riyatda metaforaning o'rni va roli, shoirning metafora qo'llashdagi usullari tadqiqi uchun Eshqobil Shukurning "Ko'z yumib ko'rganlarim", "Yashil qushlar", "Sochlari sumbul-sumbul..." to'plamlaridagi turkum she'rlari tahlilga tortilgan. Shu orqali she'rda metaforaning turli shakl va holatlarda kelishi ko'rsatilgan.

Muammoni o'rganishda formal va lingvistik metodlar qo'llandi.

Natijalar va ularning tahlili

Avvalo, metafora ishlatishning turli davrlarda turlicha ko'rinishda bo'lganligini aytib o'tish joiz. Davrning she'riyatga ta'siri adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha tahlil qilingan. She'riyatning davrlar silsilasidagi evrilishlari ham e'tiborga molik. "Devonu lug'otit turk" (Mahmud Koshg'ariy) dagi barmoq she'r tizimining jilvalari asrlar o'tib, mumtoz adabiyotdagi g'azal-u ruboiylardan so'ng XX asr boshlariga kelib yana bo'y ko'rsatdi. Asr boshidagi barmoq she'r tizimi esa bugungi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Xususan, metaforik yangilanishlar borasida. Professor Ulug'bek Hamdamov she'rning davr bilan bog'liq evrilishlari haqida gapirib, 90- va 2000-yillarda shakllangan yo'nalishning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida "voqeabandlikdan, tasvirdan, bayondan deyarli voz kechish va buning o'rniga metafora va detallarga urg'u berish"ni ko'rsatadi [2. B. 90]. Adabiyotshunos Yashar Qosimov 60-yillar o'zbek she'riyatidagi lirik qahramon masalasini o'rganar ekan, davr va zamon bilan bog'liq holatlarda poeziyatining o'rnini ko'rsatib beradi [3]. A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdieva kabi shoirlarning metafora qo'llash uslubi o'ziga xos. Ya.Qosimov she'riyatdagi bu o'ziga xoslikni lirikaning yangilanishi, yangi lirik qahramonlarning yaralishi sifatida ko'rsatadi.

Tilshunos olimlar metaforalanayotgan va metaforalayotgan obyektlarni lingvistik tarafdan o'rganar ekan, tahlilda bir so'z yoki jumlani ajratib ko'rsatadi. Xuddi she'rdagi satrlarni alohida olib tahlilga tortgan kabi. O'zbek adabiyotida shunday she'rlar borki, ularni metaforik tahlil qilganda yaxlit satrlar, butun boshli band yoki she'rning o'zini olishga to'g'ri keladi. Bunda metaforalanayotgan obyekt sifatida bir jumla yoki so'z emas, holat qabul qilinadi. Masalan, Abdulla Oripovning mashhur "Tilla baliqcha" she'ri (she'rning asosi *"tilla baliqcha – g'aflatdagi odam"* metaforasi hisoblanadi), Usmon Azimning "Yomg'ir haqida ballada"si (*yomg'ir – oshiq*), Abduvali Qutbiddinning "Subhlar ho'playdi..." deb boshlanuvchi (*birinchi aprel – yolg'on aytiladigan kun*) va shu kabi she'rlarda metafora butun bir she'rning o'zida namoyon bo'ladi. Bu kabi she'rlar, ayniqsa, Eshqobil Shukur ijodida ko'p uchraydi. Shoirning she'rlarini tahlil qilish jarayonida she'riyatda hali to'la ochib berilmagan ana shu jihatga duch kelganimizni ta'kidlash joiz. Bu jihatni "she'r-metafora" nomi ostida tushuntirishga harakat qilamiz.

Dastlab "she'r-metafora" jumlasining so'z qurilishidagi lug'aviy ma'noni asoslash lozim bo'ladi. Chiziqcha bilan yozilgan bu ikki so'z lisoniy tomondan teng huquqli. Ya'ni, ushbu yo'nalishdagi she'rlar tahlil qilinganda butun boshli she'rning o'ziga metafora deb qarash mumkin. Zotan, she'rning ichidagi metafora (biror so'zning yoki jumlaning metaforik holatda kelishi) emas, aynan she'rning o'zi metafora ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Biz odatda filologik tahlillarda ishlatiladigan metaforalarni shartli ravishda "so'z-metafora" deb olamiz. Sababi, bu holatda so'zlashuvdagi gap yoki tahlil etilayotgan badiiy asar (bizning tahlilimizda – she'r) tarkibidagi bir so'zning metaforalanish holatini ko'ramiz. Masalan, Eshqobil Shukurning "Qaldirg'ochning ko'zyoshlari" turkumidagi [4. B. 4] quyidagi satrlarga e'tibor qaratamiz:

Men
Qabrda tug'ilgan Go'ro'g'li edim,
Zulmat yo'rgaklagan Nuro'g'li edim,
Ikki jahon aro Yo'lo'g'li edim...

Bu yerda "*Go'ro'g'li", "Nuro'g'li", "Yo'lo'g'li"* so'zlari aynan metaforalanayotgan so'zlardir. She'rning sarlavhasidan so'ng "tarjimai holim" deb izoh berilgan. Shundan tushuniladiki, "Men – Go'ro'g'li", "Men – Nuro'g'li", "Men – Yo'lo'g'li" metaforalari she'rda aytilmoqchi bo'lgan umumiy mazmunni to'ldirishga xizmat qilyapti. Yana shunday metaforalar borki, ular

bir so‘zdan emas, ikki yoki undan ortiq so‘zdan, asosan jumlalardan iborat bo‘ladi. Buni esa shartli ravishda “birikma-metafora” deb olamiz. Albatta, bizning bu shartli nomlashlarimiz quyida boshqa bir nazariy holatga aynan nom berish uchundir.

Shoirning “Anjuman” she’ridan [5. B. 4] bunga misol keltiramiz:

So‘zlar qiyg‘os gullar bu kecha...
Bir jom obi zamga aylanar sabr,
Yashillanib ketar qarri daricha,
Peshonangni silar laylatul-qadr.

“Qiyg‘os gullaydigan so‘zlar – mazmunli va uzoq suhbat” metaforasini bir so‘z bilan ifodalash mushkul. Mazkur metaforik holatga “anjuman” degan tasvirning o‘zi kamlik qiladi. Shu boisdan ham bu so‘z sarlavhaga chiqarilgan. Anjumanning sifati esa she’rdagi tasvirlar orqali ochiladi. Sabrning bir jom obi zamzamga aylanishi-chi? Obi zamzam – *Makkadagi* muqaddas obi Zamzam suvi (Shoir bu so‘zni “*оби зам*” шаклида ишлатган – Д.М). Bu shunday anjumanki, sabrni ham bir jom obi zamzam qadar ichish mumkin. *“Yashillanib ketadigan daricha – mazmunli suhbatga to‘la xona”* metaforasi esa tasvirning davomidir. Mazmunli va uzoq suhbat bo‘ladigan xonaga tashqaridan qarasangiz, darichadan bu holat sezilib turadi. Daricha ham shunchaki daricha emas – “*qarri daricha*”. Eski, qachonlardan beri bu qadar mazmunli suhbatni ko‘rmagan daricha “*yashillanib ketadi*”. Undan keyingi *“Peshonangni silar laylatul-qadr – dunyodagi eng baxtli, komil inson”* metaforasi esa bu fayzni yanada jonlantiradi. E’tibor berilsa, mazkur metaforalarning deyarli barchasi ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalanyapti. Metaforik holatning izohini ham bir so‘z bilan ifodalash mushkul. Shu bois bu tizimlarga shartli ravishdan “birikma-metafora” deb qaradik.

Aslida “so‘z-metafora” yoki “birikma-metafora” degan qarashlar adabiyotshunoslikda avvaldan bor. Faqat biz uni bu so‘zlar bilan emas, oddiygina metafora deb ishlatamiz. She’rdagi metaforalar haqida gap ketganda ham alohida nomlanmagan mazkur tushunchalar tasavvurimizda turadi. Aslida bunday deb nomlash ham shart emas. Biroq biz quyida aytmoqchi bo‘lgan “she’r-metafora” tushunchasiga izoh berish uchun ham vaqtincha ana shu shartli nomlarni qabul qildik.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, yuqorida A.Oripov, U.Azim, A.Qutbiddin she’rlaridan keltirilgan misollar kabi ayrim shoirlar ijodida birikmadan kattaroq miqyosdagi metaforalar uchraydi. Aynan butun boshli she’r yagona maqsad ifodasiga bo‘ysundirilgan, she’r metaforaga aylangan. Ya’ni o‘rtada tenglik alomati qo‘yiladigan holat: she’r – metafora. She’rning to‘liq mazmuni bitta metaforaga singdirilgan, yaxlit obrazga aylangan. Xususan, Eshqobil Shukurning “Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar” turkumiga kirgan quyidagi she’rida [5. B. 63] metaforalar, tashbehlar, o‘xshatishlarning barchasi bitta metaforik holatni ochib berishga xizmat qilyapti:

Osmon balchig‘ida notavon qushday
Uchib borayotir xaroba bir uy.
Toptalgan erk kabi, kuygan kitobday
Uchib borayotir xaroba bir uy.
Odamlarin erga lash-lushday tashlab,
Ko‘chib borayotir xaroba bir uy [5. B. 63].

Mazkur she’rning o‘zi butunligicha bitta metafora bo‘la oladi. She’rdagi bosh metaforik holat – “xaroba uy” asosni tashkil qiladi. Garchi she’rda kelayotgan “osmon balchig‘i”, “notavon qush”, “kuygan kitob” kabi o‘xshatish va metaforalar o‘z holicha ham ma’lum bir tasvirni bera olsa-da, bosh maqsad “xaroba uy – o‘tayotgan umr” metaforasini ochib berishga xizmat qilyapti. Xaroba uyni o‘tayotgan umr sifatida qabul qilganimizda esa “uchib borish”, “ko‘chib borish”, yerga tashlangan odamlar” kabi holatlar ham anglashilib boradi. She’r “Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar” turkumidan olinganligini inobatga olsak, asosiy metaforik holat yanada teranroq gavdalanadi.

Shoirning mashhur “To‘qqizinchi fevral” she’ri garchi metaforalardan holi ko‘rinsa-da, she’rning o‘zi yuqoridagi fikrimizga misol bo‘ladi. Mazkur she’rda o‘zbek tilining yashab qolishiga avvaliga shubha, so‘ngra umid va nihoyat, ishonch bildirilishi mohiyatning asosidir. Bu yerda shaxslantirish yoki narsa-buyumga unga xos bo‘lmagan boshqa bir xususiyatning berilishi holatlari kam. Ammo ona tilining bir mas’uli o‘laroq shoir lirik qahramonning o‘zini

metaforik holatda ko‘rsatadi. Ana shu omil sabab “To‘qqizinchi fevral” she’rini “she’r-metafora” deyish mumkin.

To‘g‘ri, she’rning ichiga kirib borsak, metaforaning yuqorida aytilgan ko‘rinishlariga ham duch kelamiz. Xususan, quyidagi satrlarda qushlarga insonga xos sifat, ya’ni “Lisonut-tayr”ni o‘qish, aytish sifati berilyapti:

Men ertaga o‘laman, ona,
Daraxt shoxlarida qushlar bu kecha
“Lisonut-tayr”ni takror etmasa... [5. B. 14]

Aslida esa “Lisonut-tayr”ning o‘zi ham yaxlit metaforadan iborat, deyish mumkin. Asar badiiy butunligini ta’minlashda metafora jiddiy ahamiyat kasb etishi mazkur asar zimniga yuklangan ma’no orqali yanada teranroq ko‘rinadi. Butun asar davomida qushlar inson bo‘lib gapiradi, o‘ylaydi, fikrlaydi. Shoir ana shu mantiqdan kelib chiqqan.

She’rning davomidagi:

Qushlar... Daraxt shoxlarida titragan qushlar
Navoiy tilida gapirib chiqdi [5. B. 14].

satrlari bu boradagi fikrlarni yanada mustahkamlaydi.

Biz “she’r-metafora” deb atayotgan tushunchani “ko‘p qatlamli metafora” yoki “bitta she’rda bir nechta metaforalarning kelishi” deb ham tasnif berish mumkin-ku, degan e’tirozlar ham tug‘ilishi tabiiy. Avvalo ko‘p qatlamli metafora tushunchasi bu holatga mos kelmaydi. Bunda bitta metafora bir nechta mazmunni anglatishi tushuniladi. Omonim metafora desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Bitta she’rda bir nechta metaforalarning kelishi esa she’riyatda eng ko‘p uchraydigan hodisadir. Biror she’rni metaforik tahlil qilish jarayonida undagi metaforalar sanab, tahlil qilinib boriladi va she’r haqidagi, shoir uslubi borasidagi umumiy xulosa chiqariladi. Bunda metaforalarni she’rdan ajratib ko‘rsatgan holda tahlil qilish ham mumkin. O‘sha sanalgan metaforalar ham umumiy mazmunga xizmat qilayotganligi tabiiy. Muddao ham aynan mana shu yerda: sanalgan metaforalar umumiy mazmun uchun xizmat qilyapti. “She’r-metafora”da esa ularning barchasi yagona metafora uchun xizmat qiladi. Shoirning “Mening qo‘lim ochiq...” deb boshlanuvchi she’rida [6. B. 41–42] bu yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi:

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,
Kaptarlar don terib yedilar undan.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,
Yulduzlar qon so‘rib yedilar undan... [6. B. 41]

She’rdagi “qo‘lim ochiq” metaforasini ko‘p qatlamli metafora deb qabul qilish mumkin. Ya’ni bitta metaforaning o‘ziga “qo‘lim ochiq – saxiy”, “qo‘lim ochiq – hamrohsizlik”, “qo‘lim ochiq – erkin” “qo‘lim ochiq – u dunyoga olib ketadigan hech narsam yo‘q (Iskandarning qo‘li)” kabi ma’nolarni idrok qilish mumkin bo‘ladi:

Mening qo‘lim ochiq, ko‘llarim ochiq,
Turnalar arg‘imchok soldilar unda.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,
Yo‘llarning izlari qoldilar unda [6. B. 42].

She’rdagi alohida metaforalarga uzoq to‘xtalmaymiz va asosiy fikrni davom ettiramiz.

She’r har biri ikki satrli to‘qqiz banddan iborat. Har bandda *“Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq”* satri takrorlanadi. Ammo she’rdagi o‘xshatish-u ramzlar to‘qqiz marta takrorlangan ushbu satr uchun emas, “qo‘llaringdan ayrilgan kun – sen bilan xayrlashgan kun” metaforik holatini mustahkamlash uchun xizmat qiladi:

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,
Kezdi suluvlarning qo‘llari unda.

Mening qo‘lim ochiq, qo‘llarim ochiq,
Sening qo‘llaringdan ayrilgan kundan!
[6.B. 42]

Eshqobil Shukurning “Ko‘ngil qushlari” she’ridan parcha keltirishdan oldin nomning o‘ziyoq metaforadan iborat ekanini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Mohiyatan she’r ana shu metaforaga qurilgan.

Bu qushlar – ko‘r qushlar, tug‘ma ko‘r qushlar,
O‘ttiz yil boqyapman yurak yedirib.
Arslon o‘z bolasin turganday tishlab,
Turar tumshuqlarin dilga botirib... [5. B. 54]

She’rning birinchi va so‘nggi bandida lirik qahramonning ayolga murojaati ham borki, bu tahlil davomida “she’r-metafora” tushunchasidan biroz chalg‘itishi mumkin. Biroq o‘sha murojaat-u boshqa metaforalar ham “ko‘ngil qushlari”ni ifodalashdek bosh maqsadga bo‘ysundirilgan.

Shoirning uch banddan iborat “Mamatrayim baxshi” she’rida ham ana shunday metaforik holat bor:

Tilingga chipqonlar chiqqanida,
Tilingni chayonlar chaqqanida,
Men tabib bo‘ldim, xalqim.
Men tabib... [. B. 57]

Bir qarashda butun she’rda baxshining portreti gavdalangandek tuyuladi. Lekin she’r faqatgina portretdan iborat emas. Gap faqatgina baxshida ham emas. She’rning lirik holati o‘quvchini baxshi portretidan qo‘shiqqa, dostonlarga yetaklab boradi.

So‘ng manzilga kuzatsang bitta so‘zingni
Men tobut bo‘ldim, xalqim [5. B. 57].

degan shoir baxshi siymosida qo‘shiqni, nola-yu fig‘onlarni ko‘rsatadi. Bu esa qo‘shiq haqida, doston haqida hech nima demasdan, u haqda kuylashdir. Shuning barobarida elning tili, dili bo‘lgan, xalqning dardini kuylagan, shuning barobarida “Yurakni o‘rtaga qo‘yib yashagan” bir qahramon gavdalanadi. Endi bu qahramon baxshi bo‘lmaydi. U o‘zi so‘zga, dardga, “so‘zlarning dasturxoni”ga aylanib ketadi.

Yuqorida adabiyotshunoslikda “she’r-metafora” holati hali to‘la ochib berilmaganligini qayd etdik. Bunday xulosaga kelishimizning sababi shundaki, zamonaviy she’riyat bilan bog‘liq bir qator tadqiqotlarda bu masalaga yaqin kelib o‘rgangan kuzatishlarni uchratmadik. To‘g‘ri, bevosita yoki bilvosita she’r-metaforaga murojaat qilganlar bor. Ammo ular metaforaning ichida bo‘lgan bu holatga alohida e’tibor qaratishmagan. She’r tahlillarida metaforik tafakkur yoki istiora, badiiy ko‘chim ma’nosida mazkur tushunchaga bilvosita munosabat bildirishgan bo‘lishi mumkin. Aynan ana shu omillar sababli she’r-metaforaga alohida diqqat qaratdik.

Rossiyalik shoir va publitsist Yevgeniy Stepanov “Neva” jurnalida chop etilgan maqolasida “she’r-metafora” iborasini “stixotvorenie-metafora/megametafora” tarzida qo‘llaydi [7.B. 213–220]. Ye.Stepanov maqolada Gennadiy Ayga va Viktor Sosnorani rus she’riyatida yangi yo‘nalish yaratgan shoirlar sifatida ko‘rsatib, aynan “megametafora” istilohini qo‘llaydi. Ye.Stepanov “stixotvorenie-metafora” iborasiga ham, “megametafora” istilohiga ham izoh bermaydi. Biroq maqoladagi G.Ayga va V.Sosnora she’rlaridan berilgan misollar biz yuqorida “she’r-metafora” atamasiga ko‘rsatgan ta’riflarimizga yaqin keladi. Biroq Ye.Stepanov “stixotvorenie-metafora” iborasiga sinonim sifatida qo‘llagan “megametafora” atamasi biroz bahsli. Fikrimizcha, “mega” frazasini katta, ulkan, yirik ma’nosida oladigan bo‘lsak, megametaforani shakl bilan bog‘liq hodisa sifatida tushunish mumkin bo‘ladi. Demak, katta mazmunni o‘zida jamlagan kichik lug‘aviy birliklar, deb qaralsa, mazmunni anglash osonroq kechadi. Rus tilshunos olimlari Zoya Rezanova va Konstantin Shilyayevning “Megametafora adabiy matnlar siklida izchillik va uyg‘unlik vositasi sifatida” maqolasida bu tushuncha kengaytirilgan metafora sifatida qo‘llanadi [8. B. 31–39]. Ular bir nechta metafora va badiiy san’atlarning yig‘indisini megametafora sifatida ko‘rsatib, Jek London romanlari asosida tahlil qiladi. Demak, bu atamaning she’riyatga to‘la daxldorligi hali o‘z asosini topmagan.

Filologiya fanlari nomzodi Obid Karimov Abdulla Oripov she’riyatidagi metaforik tizimlarni tahlil qilish jarayonida “she’r-metafora” degan atamani qo‘llamay turib ham shu mazmundagi fikrni bildiradi. Aksar hollarda metafora matn doirasida ma’noni uyushtiruvchi markaz bo‘lib xizmat qilishi, she’r mazmuni shu markaz atrofida uyushishi va ro‘yobga chiqishini aytadi. Bunda she’riy matn doirasida mazmunan alohida-alohida bo‘lgan bo‘laklarni butun holga keltirish, ularni yaxlit ma’noga aylanish nazarda tutiladi. Ushbu nazariy fikrlarga A.Oripovning “Bahor shamoli” she’rini misol sifatida keltirib, “ushbu she’rda avval metafora asosiy g‘oyani o‘zida siqiq ifodalaydi, so‘ng shu siqiqlik yoyib, sharhlab beriladi”, deydi. Keyingi misol esa “Arslon va inson” she’ri bo‘lib, mazkur tahlil doirasida aytilgan fikr aynan “she’r-metafora” tushunchasining nazariy asosi bo‘la oladi: “Ayrim hollarda she’r to‘laligicha bitta metaforani, metaforik obrazni yaratishga sa-

farbar etilgan bo‘ladi. Tabiiyki, bu holda she’rda ishlatilgan boshqa badiiy vositalar, jumladan boshqa metaforalar ham o‘sha bosh maqsadga bo‘ysundiriladi” [9. B. 42–45]. Yuqorida Eshqobil Shukur she’rlaridan keltirilgan misollarda ham ana shu “bosh maqsadga bo‘ysundirish” holatini ko‘rish mumkin.

“She’r-metafora” tushunchasiga sintaktik tomondan qaralganda “izohlovchi-izohlanmish” munosabati yuzaga keladi. Tilshunoslikda aynan mazkur holatga quyidagicha izoh berilgan: “Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma’noni bildiruvchi turdosh otdan iborat bo‘lsa, aniq ma’noni bildiruvchi ot izohlovchi, umumiy ma’noni bildiruvchi ot izohlanmish bo‘ladi. Yozuvda ular orasiga chiziqcha qo‘yiladi” [10. B. 258–259]. Bu yerda asosiy e’tibor “metafora”-ga qaratilayotganligi sababli (“so‘z-metafora”, “jumla-metafora”) “she’r” so‘zi izohlovchi hisoblanadi.

Xulosa

Demak, “she’r-metafora” tushunchasining sintaktik isbotidan so‘ng unga badiiy talqin tomondan quyidagicha ta’rif beramiz: She’r-metafora – bu she’rdagi bir nechta badiiy san’atlar va metaforalar she’rning asosini tashkil qiluvchi bitta metaforani izohlashga xizmat qilishidir. Bunda she’rning o‘ziga butunligicha bitta metafora deb qaraladi. She’rning ichidagi metaforalar ajratib olinganda ham o‘sha bosh metaforaga bo‘ysundiriladi.

Bu she’rni tushunish yo‘lidagi nazariy bir harakat. Toki davrlar osha she’riyat yangilanib borar ekan, bu harakatlar o‘z nazariy isbotini topaveradi. Badiiy ijodda bo‘lgani kabi o‘sha badiiy ijodni tahlil qilish jarayonida ham yangilanishlar bo‘laveradi. Bu isbot shart bo‘lmagan haqiqat. Yo‘qsa, adabiyot ham, adabiyotshunoslik ham allaqachon rivojlanishdan to‘xtab, turg‘unlikka va o‘z-o‘zini takrorlash holatiga yuz tutgan bo‘lar edi. Keltirilgan misollarga metaforalarni qo‘llashdagi shoirning uslubi, adabiyotning takomili sifatida qarash o‘rinlidir. She’riyatda tushunishni osonlashtirish uchun metaforalardan foydalanilar ekan, bu jarayon ham vaqt o‘tgani sari takomillashib boraveradi. Davr esa kelgusida metaforaning, umuman, poeziyaning yangi ko‘rinishlarini, yangicha evrilishlarini namoyish etadi.

Adabiyotlar:

1. *Аристотель.* Поэтика. – Тошкент: Адабиёт ва санъат,1980. – 152 б.
2. *Ҳамдамов У.* Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан. 2007. – 188 б.
3. *Қосимов Я.* Ўзбек шеъриятида поэтик фикрнинг янгиланиши (60-йиллар шоирлар авлоди ижоди мисолида). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1993. – 154 б.
4. *Шукур Э.* Кўз юмиб кўрганларим. Шеърлар. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 104 б.
5. *Шукур Э.* Яшил қушлар (шеърлар). – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 128 б.
6. *Шукуров Э.* Сочлари сумбул-сумбул... (шеърлар). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – 64 б.
7. *Степанов Е*. Стихотворения-метафоры Геннадия Айги, Виктора Сосноры и Валерия Прокошина // Нева, 2021. – № 8. – С. 213–220.
8. *Rezanova Z., Shilyaev K.* Megametaphor as a coherence and cohesion device in a cycle of literary texts // Lingua Posnaniens, 2015. – LVII(2) – Pp. 31–39.
9. *Каримов О*. Абдулла Орипов шеъриятида метафорик образлар тизими: Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2012. – 140 б.
10. *Менглиев Б., Холиёров Ў.* Ўзбек тилидан универсал қўлланма. – Тошкент: Фан, 2008. – 436 б.

POEM-METAPHOR

Dadaxon A. Muhammadiyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 49-56.

[1]Institute of Uzbek language, literature and folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences. Tashkent, 100060, str. Shakhrisabz passage, 5 (Uzbekistan). E-mail: uzlit@uzsci.net

Keywords: poetry, metaphor, poem-metaphor, image, interpretation, metaphorical object, megametaphor.

This article analyzes the use of metaphor in poetry, the importance of metaphor in the structure of poetry. It has been said that the style and form of the poetry, and the intellectual changes are changing according to the period. Also, the importance of the era in the change of the form and spirit of the poem is also mentioned. As the main goal of the research, it is shown through examples that in addition to the metaphors in the poem, a whole paragraph or the poem itself can be a metaphor. The author explores three types of metaphors commonly found in poetry: “word-metaphor,” “phrase-metaphor,” and the concept of “poem-metaphor” as an extension of these analyses. The article argues that a poem itself can function as a metaphor, and examples from Eshqobil Shukur’s poetry are provided to support these theoretical ideas. In particular, although the poems presented in the article are analyzed differently in different cases, they form a commonality for the “poem-metaphor” form.

Metaphorical imagery and comparisons are integral to the essence of poetry. In Uzbek literature, there are poems that require a metaphorical analysis encompassing entire lines, stanzas, or even the entire poem itself. In such cases, the object being metaphorized is not limited to a single sentence or word, but rather an entire situation. This type of poetry is particularly prevalent in the works of Eshqobil Shukur. The article introduces the term “poetry-metaphor” to explain this form of expression. Alongside artistic analysis and theoretical foundations, the article also delves into the dictionary meaning of “poem-metaphor” in terms of word construction and linguistic principles.

Throughout the research, metaphors commonly employed in philological analyses were categorised as “word-metaphor” and “phrase-metaphor,” focusing on instances where one or more words are metaphorized. These classifications serve to provide a theoretical framework for the concept of “poem-metaphor.” It is important to distinguish the concept of “poem-metaphor” from other cases such as “multi-layered metaphor” or “the occurrence of several metaphors in one poem.” The article presents classifications and foundations for these distinct cases to avoid confusion.

The following can be stated as the conclusion and result of the research: While references to poem-metaphor can be found in research on contemporary poetry, they are often not explicitly labelled or fully explored in terms of theoretical basis. To address this gap, the article reviews the works of Russian poet and publicist Yevgeny Stepanov, Russian linguists Zoya Rezanova and Konstantin Shilyaev, as well as Uzbek literary scholar Obid Karimov. In the concluding section, the article provides a theoretical definition of the concept of “poem-metaphor”.

References:

1. Aristotle. (1980) *Poetika* [Poetics]. Tashkent: Adabiyot va san’at.

2. Hamdamov, U. (2007) Yangilanish ehtiyoji [The need for renewal]. Tashkent: Fan.

3. Kasimov, Ya. (1993) O‘zbek she’riyatida poetik fikrning yangilanishi (60-yillan shoirlar avlodi ijodi misolida) [Renewal of poetic thought in Uzbek poetry (as an example of the work of the generation of poets of the 60s)]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

4. Shukur, E. (1995) *Ko‘z yumib ko‘rganlarim* [What I saw with my eyes closed]. Tashkent: Akademnashr.

5. Shukur, E. (1995) *Yashil qushlar* [Green birds]. Tashkent: Yozuvchi.

6. Shukurov, E. (1988) *Sochlari sumbul-sumbul* [His hair is hyacinth]. Tashkent: Adabiyot va san’at.

7. Stepanov, Ye. (2021) Stihotvoreniya-metafory Gennadiya Ajgi, Viktora Sosnory i Valeriya Prokoshina [Poem-metaphor Gennadiya Aygi, Viktora Sosnory and Valery Prokoshina]. *Neva*. No 8. Pp. 213-220.

8. Rezanova, Z., Shilyaev, K. (2015) Megametaphor as a coherence and cohesion device in a cycle of literary texts. *Lingua Posnaniens*. No LVII(2). Pp. 31-56.

9. Karimov, O. (2012) Abdulla Oripov she'riyatida metaforik obrazlar tizimi [System of metaphorical images in Abdulla Oripov's poetry]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

10. Mengliyev, B., Kholiyorov, U. (2008) *O'zbek tilidan universal qo'llanma* [A universal guide to the Uzbek language]. Tashkent. Fan.

Muallif haqida ma'lumot:

MUHAMMADIYEV Dadaxon Abduhamidovich – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti. E-mail: xon_0103@mail.ru.